



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **“SOURIRE” KOMPONENTLI NOVERBAL FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK TALQINI**

**Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna**  
Samarqand davlat chet tillari instituti, professor

### **Annotatsiya**

Maskur maqolada fransuz tilidagi sourire (tabassum) komponentli frazeologik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Fransuzcha badiiy adabiyotda sourire turli fe'llar bilan birikib, personajlararo affektiv va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Adresser, esquisser, faire, arracher va décocher kabi fe'llar bilan hosil bo'lgan birikmalar tabassumni ongli ravishda yo'llash, ichki hissiyotning nozik tashqi ko'rinishi, tashqi sabab ta'sirida yuzaga kelishi yoki kuchli samimiyatni ifodalash kabi turli semantik darajalarni ochib berilgan. Badiiy matnlardan keltirilgan misollar asosida bu iboralarning sintaktik tuzilishi va pragmatik funksiyalari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** sourire, frazeologik birliklar, semantik tahlil, pragmatik funksiyalar, noverbal kommunikatsiya, affektiv munosabatlar, kommunikativ vosita.

## **СЕМАНТИЧЕСКАЯ И ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НОНВЕРБАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ SOURIRE**

**Сувонова Нигорабону Низомиддиновна**  
Самаркандский государственный институт иностранных языков, профессор

### **Аннотация**

В данной статье проведён научный анализ семантических и прагматических особенностей фразеологических единиц французского языка с компонентом sourire (улыбка). Показано, что в художественных произведениях улыбка, сочетаясь с различными глаголами, выступает как коммуникативное средство выражения аффективных и социальных отношений между персонажами. Сочетания с глаголами adresser, esquisser, faire, arracher, décocher раскрывают разные семантические уровни: осознанное адресование улыбки, тонкое внешнее проявление внутреннего чувства, реакция на внешние обстоятельства или интенсивное выражение близости и искренности. На основе примеров из художественных текстов выявлены синтаксические структуры и прагматические функции данных единиц. Таким образом, улыбка в составе фразеологических конструкций демонстрирует полисемию и играет значимую роль в художественной интерпретации эмоциональных состояний и межличностных отношений.

**Ключевые слова:** sourire, фразеологические единицы, семантический анализ, прагматические функции, невербальная коммуникация, аффективные отношения, коммуникативное средство.

## **SEMANTIC AND PRAGMATIC INTERPRETATION OF NONVERBAL PHRASEOLOGISMS WITH THE COMPONENT SOURIRE**

**Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Professor

### **Abstract**

This article presents a scholarly analysis of the semantic and pragmatic features of French

phraseological units containing the component *sourire* (smile). It demonstrates that in French novels, *sourire*, when combined with various verbs, functions as a communicative means of expressing affective and social relations between characters. Constructions with verbs such as *adresser*, *esquisser*, *faire*, *arracher*, and *décocher* reveal different semantic levels: deliberate direction of a smile, subtle external manifestation of inner feelings, emergence under external circumstances, or intense expression of intimacy and sincerity. Based on examples from literary texts, the syntactic structures and pragmatic functions of these expressions are identified. Thus, phraseological units with the component *sourire* exemplify polysemy in French and play a significant role in the artistic interpretation of emotional states and interpersonal relations.

**Keywords:** *sourire*, phraseological units, semantic analysis, pragmatic functions, nonverbal communication, affective relations, communicative device.

Zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish jarayonida frazeologik birliklar, xususan noverbal komponentli frazeologizmlar alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Bunday birliklar nafaqat tilning leksik-semantik boyligini aks ettiradi, balki insonning emotsional holati, kommunikativ niyati va madaniy tajribasini ham ifodalaydi. Shu jihatdan, yuz ifodalari va tana harakatlari bilan bog'liq frazeologizmlar til va noverbal kommunikatsiyaning kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Fransuz tilidagi "sourire" (tabassum) komponentli noverbal frazeologizmlar insonning emotsional-psixologik holatini ifodalashda keng qo'llaniladigan birliklardan biridir. Tabassum inson muloqotida muhim noverbal signal bo'lib, u ijobiy munosabat, samimiyat, kinoya, istehzo yoki hatto yashirin niyatlarni ham ifodalashi mumkin. Shu sababli "sourire" komponenti ishtirok etgan frazeologizmlar nafaqat lug'aviy ma'no, balki kontekstga bog'liq pragmatik yuklamaga ham ega bo'ladi. Ular orqali nutq egasining kommunikativ strategiyasi, baholash munosabati va emotsional kayfiyati yuzaga chiqadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, noverbal frazeologizmlar, ayniqsa "sourire" komponentli birliklar semantik va pragmatik jihatdan yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Ko'pgina tadqiqotlarda frazeologizmlar faqat semantik yoki stilistik nuqtai nazardan tahlil qilingan bo'lsa, ularning noverbal asoslari, kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi va madaniy-konseptual mazmuni yetarlicha yoritilmagan. Bu esa ushbu turdagi birliklarni tizimli o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi fransuz tilidagi "sourire" komponentli noverbal frazeologizmlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur birliklarning lug'aviy va ko'chma ma'nolari tahlil qilinadi, ularning kontekstual qo'llanilishi o'rganiladi hamda kommunikativ vaziyatdagi pragmatik yuklamasi aniqlanadi.

Frazeologik birliklar tarkibida mimika, imo-ishora, yurish kabi kinesik vositalar eng ko'p qo'llaniladigan turlardan biri sifatida ajralib turadi. Bunday emotiv frazeologik birliklar (keyinchalik EFBlar) haqidagi ilk nazariy izoh G.E. Kreyidlin tomonidan kiritilgan bo'lib, u bu turdagi frazeologizmlarni "imo-ishora frazeologiyasi" yoki "kinesik frazeologiya" nomi bilan ataydi [Крейдлин: 2] va imo-ishora nomining o'zi idiomatik barqarorlikka ega ekanini ta'kidlaydi. Shunday ekan, fransuz tilidagi "noverbal frazeologiya" umumiy tasnifiy xususiyatlar asosida ko'rib chiqilsa, undagi EFBlar turli xil noverbal ifodalar orqali namoyon bo'lishi mumkinligi ayon bo'ladi.

Bunday tasnifda qo'l harakati (jestikulyatsiya), ko'z kontakti (vizualizatsiya), yuz ifodasi (mimika), teri reaksiyasi (gaptika), gavda harakati (pantomimika), paralingvistik vositalar va ekstralingvistik vositalar alohida guruh sifatida ko'rsatiladi. Har bir guruh o'ziga xos frazeologik misollar orqali til va muloqot jarayonida emotsional hamda pragmatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu tariqa, kinesik frazeologiya fransuz tilidagi noverbal frazeologik tizimning eng muhim va yuqori chastotali qatlamini tashkil etadi.

Frazeologik birliklarga xos noverbal ifoda umumiy tarzda quyidagicha aks etishi mumkin:

**Noverbal muloqot vositalari – Fransuzcha misollar – O‘zbekcha talqini:**

- Qo‘l harakati (Jestikulyatsiya): *se froter les mains* – qo‘lini bir-biriga ishqalamoq (xursandligidan);
- Ko‘z kontakti (Vizualizatsiya): *faire les yeux* – ko‘zlarini uqraytirmoq;
- Yuz ifodasi (Mimika): *rester bouche bée* – hayratdan og‘zi ochilib qolmoq;
- Teri reaksiyasi (Gaptika): *être blanc comme un linge* – dokadek oqarib ketmoq;
- Gavda harakati (Pantomimika): *couper bras et jambes à qn* – hayajondan titroqqa tushmoq;
- Paralingvistik vositalar: *rugir comme un lion* – sherdek o‘kirmoq;
- Ekstralingvistik vositalar: *le sourire aux lèvres* – kulib yubormoq.

**Tadqiqot metodikasi.** Ushbu noverbal vositalar orasida ekstralingvistik vositalar alohida o‘ringa ega. Ekstralingvistika nutqdagi pauza (sukunat), shuningdek, yig‘i, yo‘tal, xo‘rsinish, kulish, nafas olish kabi holatlarni o‘z ichiga oladi [Poyatos: 131]. Noverbal muloqotning bunday ekstralingvistik vositalari o‘ziga xos pragmatik holatlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, muloqot jarayonidagi kulgi ichki his-tuyg‘ularni amaliy jihatdan kuchli tarzda ifodalovchi ekstralingvistik vosita hisoblanadi. Fransuz tilidagi frazeologik birliklar orasida ham ushbu vaziyatga mos keladigan frazeologizmlar ko‘plab uchraydi. Ular asosan *sourire* (tabassum) komponenti orqali hosil bo‘lgan birliklarda namoyon bo‘ladi. Ularga yordamchi leksemalar sifatida ko‘z yoshlari ma‘nosidagi *les larmes*, *les pleurs*, hamda kulgi ma‘nosidagi *le rire* va *le sourire* xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ayniqsa *sourire* komponentli frazeologik birliklar alohida e‘tiborga loyiqdir. *Le sourire* (tabassum) turli fe‘llar bilan birikib, turlicha semantik va pragmatik vazifalarni bajaradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, *sourire* quyidagi fe‘llar bilan birikadi:

- **Adresser un sourire** – kimgadir jilmaymoq; ongli ravishda yo‘llangan tabassum;
- **Faire un sourire** – suhbatdoshga tabassum qilish;
- **Décocher un sourire** – kutilmagan, jonli tabassum;
- **Arracher un sourire** – majburan tabassum uyg‘otmoq;
- **Esquisser un sourire** – nim tabassum qilmoq.

Shunday qilib, ushbu fe‘llarning *sourire* bilan birikishi fransuz sentimental romanlarida mazkur leksemaning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir fe‘lning sintaktik xususiyatlari va semantik yuklamalari personajlararo munosabatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan:

*Elle lui adressa un sourire radieux.* – bu ibora ongli ravishda boshqa shaxsga yo‘llangan tabassumni bildiradi va ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlaydi.

*Elle esquissa un sourire.* – nozik, ichki hissiyotning tashqi ifodasi.

*Il me fait un sourire timide.* – bevosita suhbatdoshga yo‘naltirilgan tabassum.

*Le deuxième gling gling m’arrache un sourire.* – tashqi sabab ta‘sirida yuzaga kelgan tabassum.

*Il lui décocha un grand sourire.* – kuchli va jonli tabassum.

**Natijalar.** Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, *sourire* komponenti turli semantik va pragmatik funksiyalarni bajaradi:

- ijtimoiy aloqa vositasi;
- ichki hissiyot ifodasi;
- tashqi ta‘sir natijasi;
- kuchli emotsional signal.

Shuningdek, boshqa noverbal birliklar ham muhim rol o‘ynaydi:

- *clin d'œil* – ko‘z qisish;
- *signe amical* – do‘stona imo-ishora;
- *regard furieux* – g‘azabli qarash.

Masalan:

*Il lui adressa un clin d'œil affectueux...* – samimiyatni kuchaytiradi.

*Un sourire de prédateur* – salbiy konnotatsiya hosil qiladi.

*Un sourire jovial... puis charmeur* – turli ijtimoiy rollarni ifodalaydi.

**Xulosa.** Fransuz tilidagi noverbal frazeologik birliklar, xususan sourire komponenti ishtirok etgan birliklar yuqori darajada semantik ko‘p qirralilik va pragmatik moslashuvchanlikka ega bo‘lib, ular tilning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar badiiy matnlarda personajlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda ular o‘rtasidagi ijtimoiy va kommunikativ munosabatlarni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Sourire komponenti orqali ifodalangan noverbal ma’no nafaqat hissiy holatni, balki yashirin kommunikativ strategiyalarni, baholovchi munosabatni va nutq egasining niyatini ham ochib beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tabassurning turli semantik turlari — *radieux*, *timide*, *jovial*, *charmeur*, *prédateur* kabi sifatlar bilan ifodalangan ko‘rinishlari personajlarning emotsional fonini aniq differensiallash imkonini beradi. Masalan, *radieux* sourire ijobiylik va ochiqlikni ifodalasa, *timide* sourire ichki tortinchoqlik va noaniqlikni bildiradi, *charmeur* sourire esa kommunikativ ta’sir ko‘rsatish, o‘ziga jalb etish strategiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, *prédateur* sourire kabi birliklar noverbal frazeologizmlarning yashirin, hatto manipulyativ ma’no qatlamlarini ochib beradi. Bu esa sourire komponentining faqat ijobiy emotsiya ifodasi bilan cheklanmasdan, murakkab pragmatik yuklama kasb etishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ushbu frazeologik birliklar kontekstga kuchli darajada bog‘liq bo‘lib, ularning haqiqiy ma’nosi kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar va madaniy kodlar asosida yuzaga chiqadi. Shu sababli sourire komponentli birliklar nafaqat til birligi, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ham talqin qilinishi lozim. Ular orqali milliy mentalitet, estetik qarashlar va kommunikativ xulq-atvor modellarini ham kuzatish mumkin. Umuman olganda, fransuz tilidagi sourire komponentli noverbal frazeologizmlar semantik boylik, obrazlilik va pragmatik ko‘p funktsionallik jihatidan yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ular tilshunoslikda, ayniqsa kognitiv va pragmatik yo‘nalishlarda chuqur o‘rganishni talab etadi. Mazkur birliklarni tizimli tahlil qilish til va noverbal kommunikatsiya o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq anglashga, shuningdek, badiiy matnlarning lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Крейдлин Г. Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2004. – 584 с.
2. Bourdin F. *L'héritage de Clara*. – Paris: Belfond, 2001. – 403 p.
3. Bourdin F. *Les vendanges de juillet*. – Paris: Belfond, 1994. – 504 p.
4. Inguibert M. *Si seulement*. – Paris, 2015. – 307 p.
5. Kesteman M.-S. *Le livreur*. – Paris, 2014. – 209 p.
6. Legardinier G. *Et soudain tout change*. – Paris: Fleuve Éditions, 2013. – 456 p.
7. Poyatos F. *Language and nonverbal systems in the structure of face-to-face interaction // Language & Communication*. – 1983. – Vol. 3, No. 2. – P. 129–140.
8. Trompette L. *Ladies 1: Ladies' taste*. – Paris, 2015. – 258 p.
9. Vareille M. *Ma vie, mon ex, et autres calamités*. – Paris, 2014. – 320 p.
10. Сувонова Н. Н., Долиева Л. Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон рухияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 2 (31). – Б. 65–79.
11. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 3 (32). – Б. 192–205.